



Bir xorijiy davlatning naqd valyutasini boshqa xorijiy davlatning naqd valyutasiga almashtirish (konversiya) operatsiyasi

Bir xorijiy davlatning naqd valyutasini boshqa xorijiy davlatning naqd valyutasiga almashtirish (konversiya) operatsiyalari amalga oshirishda 09015-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi va uning bir nusxasi jismoniy shaxsga beriladi.

Chet el valyutasini o'sha chet el valyutasiga maydalab yoki yirik pul miqdoriga almashtirib berish

Chet el valyutasini o'sha chet el valyutasiga maydalab yoki yirik pul miqdoriga almashtirib berishda 09013-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi va ushbu ma'lumotnomaning bir nusxasi jismoniy shaxsga beriladi.

Shikastlangan chet el valyutasini shikastlanmagan shu turdag'i chet el valyutasiga almashtirib berish

Shikastlangan chet el valyutasini shikastlanmagan shu turdag'i chet el valyutasiga almashtirib berishda 09012-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi va bir nusxasi jismoniy shaxsga beriladi.

Yuqorida qayd etilgan amaliyotlar eng kam oylik ish haqining 500 baravari yoki undan oshgan ekvivalentdagi bunday operatsiyalar jismoniy shaxslar tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat, norezidentlar tomonidan pasport taqdim qilinganda amalga oshiriladi.